

## MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYASINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI, TAMOYILLARI VA O'ZIM XOS XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7879081>

**Bektemirova Zarnigor Jahongir qizi**

*JDPU Maktabgacha ta'lim magistri*

### **Annotatsiya.**

*Ushbu maqolada multimediya texnologiyasining pedagogik-psixologik jihatlari, tamoyillari va o'zim xos xususiyatlari mazmuni yoritib berilgan.*

### **Kalit so'zlar.**

*kompyuter, ta'lim jarayoni, ta'lim, tarbiya, multimediyali kompyuter texnologiyasi, bilish faoliyati, fan, shaxs, til, tafakkur, nutq, mantiqiy, ijodiy fikrlash, usul, og'zaki usul, ko'rgazmalilik usuli, amaliy usul, o'yin, ijodiy ish, kuzatish, suhbat.*

## ПЕДАГОГИЧЕСКИ-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ, ПРИНЦИПЫ И ОСОБЕННОСТИ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

### **Аннотация.**

*В данной статье освещается содержание педагогико-психологических аспектов, принципов и особенностей мультимедийных технологий.*

### **Ключевые слова.**

*компьютерный учебный процесс, образование, обучение, мультимедийные компьютерные технологии, познавательная деятельность, наука, личность, язык, мышление, речь, логика, образное мышление, метод, устный метод, демонстрационный метод, практический метод, игра, творческая работа, наблюдение, беседа.*

## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS, PRINCIPLES AND FEATURES OF MULTIMEDIA TECHNOLOGIES

### **Annotation.**

*This article highlights the content of pedagogical and psychological aspects, principles and features of multimedia technologies.*

### **Key words.**

*computer learning process, education, training, multimedia computer technologies, cognitive activity, science, personality, language, thinking, speech, logic, imaginative thinking, method, oral method, demonstration method, practical method, game, creative work. , observation, conversation.*

Maktabgacha tarbiya pedagogikasi pedagogika fanining muhim sohasi bo'lib, tarbiyaning yosh bog'liq bo'lgan jihatlarini ochiq beradi. Shu bilan birga, Maktabgacha tarbiya pedagogikasi maxsus va yosh pedagogikasi bilan umumiy ilmiy-nazariy asoslarga ega. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi ma'lum bir darajada MTTlarning ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, olimlar, pedagoglar, tadqiqotchilarning ishlari natijasida shakllangan.

Maktabgacha tarbiya pedagogikasining ilmiy-nazariy asoslari va tarbiyaviy (jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat, estetik) jihatlari bo'yicha olimlar, amaliyotchilar, pedagoglar o'z fikrlarini bayon etishgan. Bu borada Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Al-Xorazmiy, shuningdek, xorijiy pedagoglardan U.A.Komenskiy, L.S.Vigotskiy, A.R.Usova, I.Y.Lerner, M.N.Skatkin va boshqalarning ishlari e'tiborga loyiqdir. Bolalar psixologiyasiga oid ma'lumotlar L.F.Obuxova tomonidan bayon etilgan Hozirgi kunda maktabgacha tarbiya pedagogikasining rivojlanishida P.Yusurova F.R.Qodirovalarning ham hissi katta.

Maktabgacha ta'lim didaktikasi - umumiy didaktikaning bir sohasi bo'lib, Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limi va o'qitish nazariyasi hisoblanadi, uning maqsadini belgilaydi, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni maktabga tayyorlashni ta'minlovchi ta'limning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ishlab chiqadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish bilish nazariyasiga asoslanadi, jumladan, uning "jonli mushoxadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga" degan qonunini MTTlarining kompyuterli ta'lim jarayoniga ham qo'llash mumkin. Jonli mushoxada MTT tarbiyalanuvchilariga namoyish qilinadigan vositalarga didaktik materiallar, harflar, rasmlar, chizmalar kabilarni kiritish mumkin. Ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bolalarga turlicha psixologik ta'sir ko'rsatadi. Masalan, qog'ozda yozilgan yoki kartondan kesib tayyorlangan "A" harfi tarbiyalanuvchilarga ko'rsatilsa, ularga ma'lum bir psixologik ta'sir etadi, monitor ekranida animatsiyadan foydalanilgan, multimediy texnologiyasi asosida " A" harfi ko'rsatilsa (dinamik holat), tarbiyalanuvchilarga boshqacha psixologik ta'sir etadi. Shuningdek, bolalarga

qog'ozda chizilgan archa rasmi ko'rsatilsa (statik holat), ularga oddiy psixologik ta'sir etadi, agar monitor ekranida animatsiya bilan berilgan (harakatlangan va jilolanib turgan) multimediyali rasm ko'rsatilsa, ularga boshqacha psixologik ta'sir (samara) etadi.

Tarbiyalanuvchi monitor ekranida ko'rgan (kuzatgan) obyektlari to'g'risida ma'lum bir fikr yurita boshlaydi. Yosh bolalarning elementar matematik tushunchalar bo'yicha fikrlashini shakllantirish masalalari ko'pgina metodik adabiyotlarda, qo'llanmalarda tahlil etilgan. Masalan, M.Jumayev va L.S.Vigotskiylar fikrlashning rivojlanish muammosini o'rganib, dastlab matematik tushunchalarni shakllantirishni ilgari suradilar. Bunda, ular bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirish uchun eng qulay sharoitlarni topish lozimligini ta'kidlaydilar. L.S.Vigotskiy fikricha, bola tasavvurining rivojlanishi bilimlarni o'zlashtirish jarayonisiz o'tmaydi, faqat o'quv axborotlar to'plami (bilish, bilim) bolalarning fikrlashini harakatlantiradi va rivojlantiradi.

MTTlarida yuqoridagi fikrdan kelib chiqib, bilish asoslaridan biri bo'lgan "jonli kuzatish" yosh boalarning fikrlashini rivojlantirishga olib keladi. Masalan, multimediyal slaydlarda predmetlar turli (biri oq, biri qizil, biri yashil) ranglarda beriladi. Yosh bolalar monitor ekranida ularni ko'rishi bilanoq - ranglar to'g'risida fikr yurita boshlaydilar.

I.Kalmikova fikricha, "bolada matematik tushunchalarni shakllantirishning eng ishonchli ko'rsatkichi - uning ta'limiyligi, ta'limiylikning asosi, uning asosiy tashkil etuvchisi - ta'limiylikning boshqa parametrlarini yuqori darajada aniqlab beradigan fikriy faoliyatning umumlashtirilishidir. L.S.Vigodskiy va Z.I.Kalmikova fikrlari an'anaviy usulda ta'lim berishdagi umumiy o'quv jarayoniga tegishlidir.

Bola bilish nazariyasining "abstrakt tafakkur" bosqichida monitor ekranida ko'rgan materiallariga e'tibor qaratadi, mulohaza yurita boshlaydi va fikrlaydi. "Jonli kuzatish", "abstrakt tafakkur" dan keyingi bosqich "amaliyotga tadbiiq etish" dan iborat. Kompyuterli ta'limni amaliyotga tadbiiq etish, MTT tarbiyalanivchilari tomonidan o'rganiladigan materiallarni kompyuterda bajarilishi hamda texnika va ishlab chiqarishda tatbig'i asosida amalga oshiriladi.

Multimediyali kompyuter texnologiyasi MTTlari ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiiq etilayotganligiga ko'p vaqt bo'maganligi sababli hozirgi kunda uning pedagogik-psixologik jihatlari, tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil erish muhim ahamiyat kasb etadi.

---

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: "O'zbekiston", 2021 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
4. Анисимова Н.С. Теоретические основы и методика использования и обучения мультимедийным технологиям. Дисс. пед. наук –СПб, 2002. – 330 с.
5. Adilova S. Multimediya va ularni ta'lim jarayonida qo'llash. //Pedagogik ta'lim, 2001. №2. 20-21 b.
6. Белошистая А.В. Математическое развитие ребенка в системе дошкольного и начального образования. Аннотация дисс. ... Др. пед. наук - М.: 2004. -43 с.
7. Boqiyev R.R., R.Mehmonov, D.Xusniddinova. Bolalar bog'chasida boshlang'ich kompyuter savodxonligi. -Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010. -112 b.
8. Begmatova N.X. Bog'cha bolalarining bilimni baholashda multimedia texnologiyasidan foydalanish. Qarshi DU axborotnomasi. 2009. №2. - B. 63-66.
9. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Padayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - T.: Iste'dod, 2008 yil. -108 b.
10. Воронов М.В., Пименов В.И. Мультимедийные технологии и дистанционное образование. 2000. - № 1(12).-С. 67-69.